

## XITOIY TILIDA EGA VA UNING IFODALANISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7734080>



ELSEVIER



Received: 12-03-2023  
Accepted: 13-03-2023  
Published: 22-03-2023

**Norbo'tayev Shahrx**  
Samarqand davlat chet tillar instituti o'qituvchisi



**Abstract:** Ushbu maqolada Xitoy tilida ega va uning ifodalanishi, bundan tashqari gap bo'laklari, ularning gapda qay o'rinda va qay holatda qo'llanilishi haqida ma'lumotlar berilib, tahlil etildi. Va shuningdek O'zbek tili gramatikasi bilan qiyoslab o'tildi.

**Keywords:** gap bo'laklari, ega, tarjima, bosh bo'lak, so'z birikmasi.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.



Received: 12-03-2023  
Accepted: 13-03-2023  
Published: 22-03-2023

**Abstract:** In this article, information about subject and its expression in Chinese, as well as the parts of the sentence, where and when they are used in the sentence, was analyzed. And it is also compared with the grammar of the Uzbek language.

**Keywords:** parts of speech, possessive, translation, main part, phrase.

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Til ijtimoiy hodisa bo'lishi bilan birga ma'lum bir tizimga solingan qurilmadir. Ushbu tizim esa o'z qonuniyatlariga egadir. Tildan foydalanayotganimizda biz shu qonuniyatlarga rioya etishimiz kerakdir. So'z turkumlari, gap bo'laklari, nutq vaziyati, imo ishoralar barchasi ushbu izchil tizimning ajralmas qismidir. Xitoy tilida ham barcha tillar kabi gaplar qat'iy gap bo'laklaridan tarkib topadi. Gap bo'laklari 句子成分jù zǐ chéng fèn o'zbek tilinikidan ancha farq qiladi. Xitoy tilidagi bazi gap bo'laklari o'zbek tilida boshqa gap bo'laklarining tarkibiy qismi sifatida keladi. Ba'zi manbalarda gap bo'laklari 句子成分jù zǐ chéng fèn deyilishidan tashqari, shuningdek, 句法成分jùfǎ chéngfèn termini bilan ham ishlatiladi. Hozirgi xitoy tili manbalarida 句子成分jù zǐ chéng fèn gap bo'laklarini olti turini, ba'zi manbalarda esa sakkiz turini ko'rsatishadi.

Xitoy tilida ham gap bo'laklari ikki turi mavjud bo'lib ular: 主要成分zhǔyào chéngfèn bosh bo'laklar va 辅助成分fùzhù chéngfèn ikkinchi darajali bo'laklardir. Misol uchun:

明天早上我去中国最漂亮的城市。Míngtiān zǎoshang wǒ qù zhōngguó zuì piàoliang de chéngshì. Men ertaga ertalab Xitoyning eng go'zal shahriga boraman.

Ushbu gapda gapning bosh bo'laklari 句子成分jù zǐ chéng fèn 我 wǒ ya'ni men olmosh so'z turkumi ega 主语zhǔyǔ sifatida, hamda 去qù bormoq fe'li esa kesim 谓语wèiyǔ sifatida kelmoqda. Ikkinchi darajali bo'laklar sifatida esa 明天早上 ertaga

ertalab 时间状语 shíjiān zhuàngyǔ ya'ni payt holi sifatida, 城市 chéngshì shahar 宾语 bīnyǔ ya'ni to'ldiruvchi sifatida kelyapdi. 最漂亮的 zuì piàoliang de eng chiroyli 定语 dìngyǔ ya'ni sifatlovchi aniqlovchi, 中国 zhōngguó Xitoy esa 定语 dìngyǔ qaratqich aniqlovchi bo'lib kelyapdi.

我的家庭生活在北京。Wǒ de jiāting shēnghuó zài běijīng. Mening oilam Pekinda yashaydi.

Yuqoridagi gapda ham gap bo'laklarining har ikki turi qatnashgan. 家庭 jiāting oilam so'zi ega 主语zhǔyǔ vazifasida, 生活 shēnghuó so'zi esa kesim 谓语 wèiyǔ sifatida kelmoqda. 我的 wǒ de 定语 dìngyǔ qaratqich aniqlovchi, 在北京 zài běijīng Pekinda (qayerda?) so'zi esa, 地方状语 dìfāng zhuàngyǔ ya'ni o'rin holi sifatida qatnashgan.

今天我爸爸要来。Jīntiān wǒ bàba yào lái jīntiān wǒ bàba yào lái. Bugun dadam keladilar.

Ushbu sodda gapda ham bosh bo'lak ham ikkinchi darajali bo'lak qatnashgan. 今天 jīntiān (qachon?) 时间状语 shíjiān zhuàngyǔ ya'ni payt holi sifatida, 我 wǒ 定语 dìngyǔ qaratqich aniqlovchi, 爸爸 bàba ot so'z turkumi ega 主语zhǔyǔ sifatida, 要 yào so'zi esa 能源动词néngyuán dòngcí model fe'l, ammo u 来lái kelmoq so'zi bilan birgalikda 谓语 wèiyǔ kesim vazifasini bajaryapdi. 要 yào so'zi kelajakni bildirib kelmoqda.

Yuqorida o'zbek tili va xitoy tilida gap tahlillaridan ko'rishimiz mumkinki, xitoy va o'zbek tillarida gapning bosh bo'laklarining tartibi farq qiladi. Ya'ni, o'zbek tilida kesim odatda gapning oxirida keladi, xitoy tilida esa asosan egadan keyin keladi. Shu jihatdan xitoy tilidan o'zbek tiliga gapni tarjima qilishda gapni to'liq eshitib yoki ko'rib bo'lgandan so'ngiga gapni tushunib tarjima qilishimiz mumkin.

Xitoy tilidagi gaplarda asosan oltita gap bo'laklari mavjud bo'lib,ular quyidagi jadvalda ko'rsatib o'tilgan:

句子成分 Gap bo'laklari	例句 Misollar
1. 主语Ega	哥哥听音乐。
2. 谓语Kesim	哥哥看小说。
3. 宾语To'ldiruvchi	他们听音乐。
4. 定语Aniqlovchi	我弟弟看外文小说。
5. 状语Hol	他专心地写文章。
6. 补语 To'liqllovchi	他写完毕业论文了。

Soʻz va soʻz birikmalari gapni tashkil qiluvchi vositalar hisoblanadi. Misol uchun:

我的	朋友	都	写	完	毕业	论文	了
Ega qismi		Kesim qismi					
1	Ega		Kesim			Toʻldiruvchi	
Aniqllovchi		Hol		Tugal	Aniqllovchi		
2							
3	Egalik olmoshi	Ot	Ravish	Fel	Fel	Fel	Ot
							Yordamchi soʻz

Xitoy tilida gapning bosh boʻlaklari ikkita qismga ajratiladi: Ega qismi va kesim qismi.

Ega – gapning bosh boʻlaklaridan biri; gapni tashkil etishda muhim rol oʻynaydi. Ega fikrning kimga, nimaga qarashli ekanligini anglatadi, shu jihatdan kesim bilan oʻzaro yaqin bogʻlangan. Ega, odatda, kesim orqali, kesim esa ega orqali, bir-biriga nisbat berish bilan belgilanadi. Grammatik jihatdan ega boshqa boʻlaklarga nisbatan hokim vaziyatni egallaydi (baʼzi ilmiy adabiyotlarda mutlaq hokim sifatida gapning kesimi koʻrsatiladi). Ega vazifasida kelgan soʻz egalik va koʻplik qoʻshimchalarini qabul qila oladi va bosh kelishlik shaklida qoʻllanadi. U koʻpincha ot, olmosh, otlashgan soʻz va soʻz birikmasi bilan ifodalanadi. Ega, asosan, kesimdan avval keladi; bunday soʻz tartibi eganing grammatik belgilaridan biridir. Baʼzan kesimdan keyin ishlatilishi ham mumkin; bu hodisa inversiya deyiladi. Ega baʼzan birgina soʻzdan, baʼzan esa bir necha soʻzdan, yaʼni sintaktik birlikdan iborat boʻladi.

Ega qismi		Kesim qismi
	Ega	
我	姐姐	去.
她的	裙子	很好看.
那个	网吧	在和平大街.

Yuqorida keltirilgan misollardagi 我姐姐, 她的裙子, 那个网吧 kabi soʻz birikmalari ega qismi hisoblanadi. 姐姐, 裙子, 网吧 soʻzlari esa ega yoki kalit soʻz deb ataladi.<sup>53</sup>

Oʻzbek tilida gap tarkibini tashkil etuvchi boʻlaklar gap boʻlaklari deyiladi. Gap boʻlaklari: bosh boʻlaklar va ikkinchi darajali boʻlaklardan iborat. Gapning grammatik asosini tashkil etuvchi va predikativ markaz hosil qiladigan boʻlaklar bosh boʻlaklar deyiladi. Gapda bosh boʻlaklarning mazmunini toʻldirib, aniqlab keladigan boʻlaklar ikkinchi darajali boʻlaklar deyiladi. Bosh boʻlaklar ega va kesimdan, ikkinchi darajali boʻlaklar toʻldiruvchi, aniqlovchi, holdan iborat.

Gapda mutlaq hokim boʻlib, kesim orqali ifodalanadigan fikmi bildiruvchi bosh boʻlak ega deyiladi.

Ega asosan predmet tushunchasini anglatib, kesim orqali bildirilgan belgi harakat, holatning kimga yoki nimaga tegishligini koʻrsatadi va bosh kelishikdagi soʻz bilan ifodalanib kimga? nima? kimlar? nimalar? qayer? kabi soʻroqlardan biriga javob beradi.

Oʻzbek tilida ega quyidagicha ifodalanadi:

1. Ot bilan: a) atoqli ot bilan ifodalanadi. Masalan: Alisher Navoiy gʻazal mulkingning sultonidir. Avaz botqoq va qorongʻi yoʻldan tekis va yorugʻ maydonga chiqdi. Qorabuloq - juda chiroyli, juda soʻlim joy. b) turdosh ot bilan.

Bunda ari keltiradi bol,

Bunda qushlar topadi iqbol.

d. Olmosh bilan: Biz kelgusi asrga oʻzimiz bilan nimalarni olib oʻtishimiz mumkin va zarur? (I. R.)

Har kimiki vafo qilsa, vafo topqusidur. (Bobur)

e. Son bilan: ikki yorti - bir butim. (Maqol.) Ikki oʻn besh bir oʻttiz. (Maqol.).  
Harakat nomi bilan: Ikkilanish yaramaydi.

2. Sifatdosh bilan: ishlagan tishlaydi (Maqol).

3. Sifat bilan: Yaxshi yetar murodga, yomon qolar uyatga (Maqol).

4. Taqlid soʻz bilan: Ichkaridan odamlarning shov-shuvi eshitildi.

5. Birikmalar: Oʻylamay gapirgan ogʻrimay oʻlar. (Maqol.).

谓语 kesim egani aniqlab, tasvirlab keluvchi gap boʻlagi hisoblanib, eganing kim yoki nima ekanligi, nimani bajarishini va qanday bajarishini ifodalab keladi.

Misol uchun:

他是经理。

小王会唱歌。

大家一起研究。

<sup>53</sup>李临定主语的预防地位, 中国语文, 1985.

Yuqorida keltirilgan misollardagi “是经理”, “会唱歌”, “一起研究” birliklari kesim bo‘lak hisoblanadi. 是, 研究 va 唱 so‘zlari esa kesim bo‘lakning asosiy, kalit so‘zlari hisoblanadi.

Xitoy tilida ega 主语 (zhǔyǔ) deb ataladi. Ega asosan kesimdan oldin qo‘llanilib, kesimni amalga oshiruvchi kim? yoki nima? hamda qayer? so‘rog‘iga javob bo‘la oladigan birlik hisoblanadi.

Ega qism bitta so‘zdan ham iborat bo‘lishi mumkin va bu so‘z aynan eganing o‘zi hisoblanadi. Misol uchun:

他来。

孩子们可爱。

我是医生。

(1) Ega har doim kesimdan oldin joylashadi.

(2) Ega ot, olmosh, yoki turg‘un birikma va boshqa so‘z va so‘z birikmalari orqali ifodalanishi mumkin.

(3) Ega ish-harakatning bajaruvchisi, ish-harakatni qabul qiluvchi (ya‘ni ish-harakat ega ustida bajarilishi) va boshqa vazifalarning bajaruvchisi hisoblanadi.

(4) Sifat, turg‘un birikma, olmosh, son eganing aniqlovchisi bo‘lib kelishi mumkin.

Shuningdek xitoy tilida turli til birliklari egani ifodalab kelishi mumkin.

1. Xitoy tilida otning ega vazifasida kelishi

中国在亚洲东部。明天是星期日。

老师讲语法。天气很暖和。

外边不热。礼堂在那边。

Xitoy tilida ega uning gapda joylashgan o‘rni va u ifodalayotgan ma‘nosiga qarab aniqlanadi. Asosan, ega gapda kesimdan so‘ng joylashadi. Misol uchun:

他聪明。

外祖父是工程师。

我买。

王老师有一个女儿。

Vaqt birliklari yoki joy nomlari ega vazifasida kelganda, kesim ot, sifat yoki 是 bilan ifodalanadi. Misol uchun:

后天是新年。

今天青天。

花园里很安静。

九月四号是星期天。

Yana bir muhim tomoni shundaki: xitoy tilida ega vazifasida kelayotgan so‘zlarning birorta ham alohida ko‘rsatkichi mavjud emas. Ega vazifasida keladigan so‘zlar o‘zagida hech qanday o‘zgarish bo‘lmaydi, hatto ega vazifasini bajaruvchi fe‘llar ham olmoshlarga o‘xshab hech qanday ko‘rsatkichsiz keladi va fe‘lning o‘zagi o‘zgarishsiz qoladi. Misol uchun:

问候是一种礼节。

互相帮助可以加强友谊。

Xitoy tilida *ega* gaplarda, asosan, ish harakatning bajaruvchisi bo'lib keladi ammo ba'zi holatlarda esa ish-harakat *ega* ustida, ya'ni *egaga* nisbatan bajariladi va bunday holatda *ega* ish-harakatni qabul qilib olib, ish-harakatning qabul qiluvchisiga aylanadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak: majhul nisbat hosil qilinadi. Grammatik jihatdan majhul nisbat “被” yordamchisi orqali yasaladi. Ammo, bunday holat umumiy xitoy tiliga mansub bo'lganligi sababli, xitoyliklar “被” yordamchisini unchalik ko'p ishlatishmaydi. Ko'p hollarda uni tushirib qoldirishadi. Misol uchun:

面包吃了。(面包被吃了。)

房间打扫干净了。(房间被人打扫干净了。)

语法书已经买到了。(我们已经买到语法书了。)

2. Xitoy tilida olmoshning *ega* vazifasida kelishi

他很热情。那儿是操场。

我们爱运动。谁来自乌兹别克斯坦。

这是一千块钱。你在哪个班学习?

3. Felning *ega* vazifasida kelishi

学习很重要。失败是成功之母。

游泳是一种有意思的活动。演出已经开始了。

4. Sifatning *ega* vazifasida kelishi

艰苦可以锻炼人。细心是他的特点。

消极是不对的。

5. Sonning *ega* vazifasida kelishi

六是二的三借。一百等于五个二十。

6. Takror qo'llaniluvchi hisob sozlarning *ega* vazifasida kelishi

(他们班的同学, ) 个个都是好青年。

(你看那些衬衫, ) 件件都很好看。

7. Uyushiq so'zlarning *ega* vazifasida kelishi

我和麦克都是美国人。

铁路, 公路都是前修建完工了。

这样, 那样都行。

参观访问可以增长知识。

8. Ega-kesim birikmasining *ega* vazifasida kelishi

我们明天去比较合适。你也去太好了。

他写比我写好。头疼是很难受的。

9 Fel - to'ldiruvchi birikmasining *ega* vazifasida kelishi

爬山对身体很有好处。

洗衣服非常方便。

骑自行车要注意安全。



听音乐可以提高听，说能力

10. Miqdor so'zlarning ega vazifasida kelishi

(这种衬衫很好，) 一件多少钱？

(他送我两本书，) 一本是《汉语教程》，一本是《中国地理》

(这儿有三张票，) 两张给你，一张给他。

11. Bir-birini to'ldiruvchi birliklarning ega vazifasida kelishi

捆得太紧不好。

厚点儿更好。

12. Joy nomlarining ega vazifasida kelishi

学校里有个游泳地。

门旁边没有树。

公园中间是一个湖。

城市里有许多超市。

13. O'rindosh birliklarning ega vazifasida kelishi

班主任王老师走了。

《中国妇女》这本杂志很有意思。

你们的老师张先生要见你们。

14. Qotib qolgan birliklarning ega vazifasida kelishi

北京语言大学在北京的西北部。

15. '的' qatnashgan so'z birikmalarining ega vazifasida kelishi

红的最好看。

开门的是位女士。

你讲的都是新鲜事。

修理冰箱的来了。

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

5. 任学良. 汉语造词法. - 北京: 北京出版社, 1981年. -186 页.
6. 屈承熹. 汉语 篇章语法.- 北京: 北京出版社, 2006 年. -350 页.
7. 现代汉语实用语法分析. 第一版, 下册. 清华大学出版社2012年
8. Sodiqov A, Abduazizov A, Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. - Toshkent: O'qituvchi, 1981-yil. -234 b.